

Fayzullayeva Dilora Baxtiyorovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yoʻnalishi 2-bosqich magistranti
E-mail: dilorafayzullayeva@94gmail.com

Tel: +998915778833

UDK: 81.106 (76.12)

TARJIMADA PRAGMALINGVISTIK TAHLILNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqola tarjimada pragmalingvistik tahlilning muhim rolini yoritib berishga qaratilgan. Pragmalingvistika – bu tilni kontekstda oʻrganadigan tilshunoslik sohasi boʻlib, tarjimada asl matnning maʼnosini va funksiyasini toʻgʻri ochib berishda muhim rol oʻynaydi. Maqolada pragmatik tahlilning muhim tushunchalari, tarjima jarayoniga taʼsiri va uning ahamiyatini koʻrsatuvchi misollar keltirilgan. Maqola shu bilan birga pragmatik tahlilsiz tarjima qilishning kamchiliklarini muhokama qiladi va tarjimonlar uchun pragmatik bilimlarni oʻrganish muhimligini taʼkidlaydi.

Kalit soʻzlar: pragmalingvistika, kontekst, nutq aktlari, dayeksis, prisuppozitsiyalar, implikatura, madaniy moslashuv, pragmatik tahlil, idioma, metafora, ironiya.

ЗНАЧЕНИЕ ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА В ПЕРЕВОДЕ

Файзуллаева Дилора Бахтиеровна
Термезский университет экономики и сервиса,
магистрант 2 курса по специальности
«Иностранный язык и литература» (английский язык)
Э-почта: dilorafayzullayeva@94gmail.com

Тел: +998915778833

Аннотация: Данная статья призвана подчеркнуть важную роль прагмалингвистического анализа в переводе. Прагмалингвистика – это область лингвистики, которая изучает язык в контексте и играет важную роль в переводе значения и функции исходного текста. В статье представлены важные понятия прагматического анализа, его влияние на процесс перевода и

примеры, показывающие его важность. В статье также обсуждаются опасности перевода без прагматического анализа и подчеркивается важность прагматических знаний для переводчиков.

Ключевые слова: прагмалингвистика, контекст, речевые акты, диексис, пресуппозиции, имплицатура, культурная адаптация, прагматический анализ, идиома, метафора, ирония.

IMPORTANCE OF PRAGMALINGUISTIC ANALYSIS IN TRANSLATION

Fayzullayeva Dilora Bakhtiyorovna

Termez university of economics and service,

Master's student of the 2nd stage in the specialty "Foreign language and literature"

(English language)

E-mail: dilorafayzullayeva@94gmail.com

Phone: +998915778833

Abstract: This article aims to highlight the important role of pragmalinguistic analysis in translation. Pragmalinguistics is a field of linguistics that studies language in context and plays an important role in translating the meaning and function of the original text. The article presents important concepts of pragmatic analysis, its influence on the translation process and examples showing its importance. The article also discusses the dangers of translating without pragmatic analysis and emphasizes the importance of pragmatic knowledge for translators.

Key words: pragmalinguistics, context, speech acts, diexis, presuppositions, implicature, cultural adaptation, pragmatic analysis, idiom, metaphor, irony.

Kirish.

Barcha fanlar singari Tilshunoslik fanining rivojlanishi, uning shakllanishi ham unga bo'lgan ulkan qiziqish sababli bo'ldi. Qiziqish tufayli esa savollar, savollar orqali izlanish paydo bo'ladi. Eng muhimi esa bu savollar ilmiy maqsadga yo'nalgan bo'lishi, ularning javobi, yechimi esa haqiqatga mos kelishi muhim ahamiyatga egadir. Tilni amaliy jihatdan o'rganishga bo'lgan ehtiyoj,

tilshunoslikda “pragmatika” atamasining kirib kelishiga sabab bo‘ldi. “Pragmatika” atamasi tilshunoslikda kontekst va ma’no o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadigan bir soha hisoblanadi. Biz tilni qanday ishlatganimiz va uni qanday tushunganimizni o‘rganadi. Bu atama XVIII asrda faylasuf Charles Sanders Peirce tomonidan “pragmatizm” falsafasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu esa dunyo haqidagi bilimlarimizni amaliy tajribalarimiz orqali o‘rganishga asoslangan edi. Peirce fikricha, biror narsaning haqiqiyligi uning amaliy oqibatlari bilan aniqlanadi. Ya’ni, biror g‘oya amalda nima qilishga undasa, u haqiqatga yaqin deb hisoblanadi [3].

Misol tariqasida, “dengiz” so‘zini olsak, bu so‘zning amaliy oqibatlari dengizda suzishni xohlash, dengiz o‘simliklari haqida o‘qishni istash yoki shunchaki dengiz haqida o‘ylashni o‘z ichiga oladi. Bu amaliy oqibatlar so‘zning haqiqiy ma’nolarini ko‘rsatib beradi. Tilning ma’nosi faqatgina so‘zlarning o‘zlarida emas, balki uning ishlatilgan joyi, vaqti va tinglovchining oldingi bilimlariga bog‘liq deb hisoblaydi.

Adabiyotlar tahlili.

Pragmalingvistika tilshunoslikning nisbatan yangi sohasi bo‘lib, uning shakllanishida ko‘plab olimlar o‘z hissalarini qo‘shgan. Jumladan: John Langshaw Austin nutq akti nazariyasini ishlab chiqqan. Uning “How to do things with words” asari tilshunoslikka kata ta’sir ko‘rsatgan. Paul Grice bo‘lsa implikaturaning nazariyasini ishlab chiqqan va konvensional imlikatura bilan kontekstual implikaturani farqini aniqlagan. Stephen C. Levinson pragmalingvistika sohasining eng muhim olimlaridan biri hisoblanadi. U “Pragmatics” asarini yozgan. Dan Sperber, Penelope Brown va boshqalar tadqiqotlari tilni o‘rganishga yangi yondashuvlarni taqdim etdi va bugungi kunda tilshunoslikning muhim sohasi bo‘lgan pragmalingvistikaning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola tarjimada pragmalingvistik tahlilning ahamiyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, mavzuni yoritib berishda taqqoslash, analiz, sintez kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Tarjima jarayoni faqat soʻzlarni bir tildan ikkinchisiga oʻtkazishdan iborat emas, balki tilning kontekstual maʼnosi, madaniy qiymatlar, nutq aktlarining taʼsiri va yashirin maʼnolarni tushunishni talab qiladi. Pragmatik tahlil tarjimada muhim rol oʻynab, tarjimonlarga asl matnning chuqur maʼnosini anglab, uni maqsad tiliga toʻgʻri tarjima qilishga yordam beradi. Pragmatik tahlil tarjimonlarga asl matnning maʼnosini chuqurroq tushunishga yordam beradi, bu esa aniq va toʻgʻri tarjima qilish imkonini beradi. Bundan tashqari tarjimada madaniy moslashuv muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlil tarjimonlarga matnning madaniy kontekstini tushunishga yordam beradi va tarjimada madaniy moslashuvlarni qilishga imkon beradi [4].

Asl matnda ishlatilgan nutq aktlarini tilda asl maʼnosini saqlab qolishga yordam beradi. Masalan: buyruq berish, iltimos qilish kabi harakatlarni toʻgʻri tarjima qilish muhimdir. Yana bu tahlil tilning nozikliklarini masalan, ironiyani, metaforani va idiomalarning maʼnosini tushunishga yordam beradi. Misol uchun: “tezroq” degan buyruqni rus tiliga “Быстрее!” deb tarjima qilish mumkin. “Salom” degan salomlashish soʻzini yapon tilida “Konichiwa” deb tarjima qilish mumkin. “oʻzingni yaxshi tut” degan gapni ingliz tiliga “Take care yourself!” deb tarjima qilish mumkin.

Pragmalingvistika – bu tilni kontekstga bogʻliq holda oʻrganadigan tilshunoslik sohasidir. U tilning ishlatilgan shakllari va ularning oʻzaro munosabatlarini tahlil qilib, tilni faqat soʻzlarning oʻziga xos maʼnosi bilan emas, balki uning amaliy foydalanish va kontekstual maʼnosini tushunishga harakat qiladi [2].

Pragmatik tahlil quyidagi tushunchalarni hisobga oladi:

Kontekst: gap qayerda, qachon, kimlar tomonidan aytilgan?

Nutq aktlari: soʻzlash orqali bajariladigan harakatlar nima?

Dayeksis: Shaxs, joy va vaqt olmoshlari kontekstga qanday taʼsir qiladi?

Prisuppozitsiyalar: Yashirin maʼlumotlar nima?

Implikatura: Gapning toʻgʻridan-toʻgʻri maʼnosiga qoʻshimcha maʼno nima?

Pragmatik tahlil tarjimada muhim ta'sirga ega hisoblanadi. Misol uchun ushbu tahlil tarjimonlarga asl matnning ma'nosini chuqurroq tushunishga yordam beradi, bu esa aniq va to'g'ri tarjima qilish imkonini beradi. Har bir til o'ziga xos madaniy qiymatlar va urf-odatlarni aks ettiradi. Pragmatik tahlil tarjimonlarga asl matnning madaniy kontekstini tushunishga yordam beradi va tarjimada madaniy moslashuvlarni qilishga imkon beradi [5]. Tarjima jarayonida bu tahlil asl matndagi nutq aktlarini saqlab qolishda yordam beradi. Bundan tashqari pragmatik tahlil tilning nozikliklarini, masalan, ironiyani, metaforani va idiomalarning ma'nosini tushunishga yordam beradi [1]. Pragmatik tahlilsiz tarjimada ko'plab xatoliklar, tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin. Masalan: kontekst tushunmasdan tarjima qilinsa, matn asl ma'no-mazmunini yo'qotishi va noto'g'ri tarjima keltirib chiqarishi mumkin.

Tarjima qilayotganda tarjimon madaniy farqlarni ham ehtiyotkorlik bilan hisobga olishi kerak. Aks holda, tarjima noto'g'ri tushunchalarni anglatishi hamda bu boshqa davlat madaniyatiga nisbatan hurmatsizlik bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu tahlil tarjimon va izlanuvchini davlatlar madaniyatini o'rganishiga bir zamin bo'ladi desak xato bo'lmaydi. Nutq aktlarini saqlab qolmaslik esa tarjima jarayonida o'zaro munosabatlarni buzishi mumkin. Masalan: "It is hot!" degan gap o'zbek tilida "Issiq!" yoki "havo issiq!" deb tarjima qilinishi mumkin [4].

Ingliz tilidagi "Can you pass me the salt?" gapi o'zbek tiliga agar to'g'ri tarjima qilinsa, "Tuzni bersangiz?" deb tarjima qilinadi. Noto'g'ri tarjima qilinsa, "Siz tuzni menga berishingiz mumkinmi?". Muammo shundaki ingliz tilidagi "Can you..." iborasi so'rov sifatida ishlatiladi, o'zbek tilida esa bu savol sifatida qabul qilinishi mumkin. Pragmatik tahlil bu so'rovning maqsadini tushunishga yordam beradi va "Can you..." iborasini o'zbek tilida so'rov sifatida ifodalash uchun mos so'zlarni tanlashga yordam beradi. "he is a chip off the old block" iborasi "U otasiga o'xshaydi" deb tarjima qilinishi kerak ammo bu iborani so'zma-so'z tarjima qilsak "u otasining bo'lagi" bo'lib, ma'no yo'qoladi. Ingliz tilidagi "I'm going to the library". "Men kutubxonaga boraman". Degan gapda "men" olmoshi gapni aytdan shaxsni yani shaxs dayeksisi bo'lib kelyapti. "Kutubxonaga

boraman” deb tarjima qilinsa noto‘g‘ri sanaladi. O‘zbek tilida “men” olmoshi ko‘pincha kontekstga qarab tushuniladi. Pragmatik tahlil esa kontekstga qarab “men” yoki “biz” olmoshini ishlatishni tanlashga yordam beradi.

Xulosa.

Yuqoridagi barcha fikrlarni inobatga olib, xulosa qilish mumkinki, tarjimada pragmalolingvistik tahlilning ahamiyati juda muhimdir. Pragmalolingvistika va pragmatik tahlil haqida tushunchaga ega bo‘lgan tarjimon haqiqiy mahorat egasi hisoblanadi. Bunday tarjimon bemalol badiiy asarlarni yoki filmlarni o‘z asl ma‘nosi bilan ta’sirchan, bo‘yoqdor qilib tarjima qilish mahoratiga ega bo‘ladi. Bunday tarjima asarlar esa ishonchli, sifatli hamda juda kerakli manbalar hisoblanadi. Ushbu mahoratga ega bo‘lish, turli til va madaniyatlardagi nozikliklarni tushunishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar

1. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press, 1983. – 345 p.
2. Levinson S.C. Pragmatics. Cambridge University Press, 1983. – 420 p.
3. Peirce C.S. Pragmatism. The Monist, 1903. – P. 161-187.
4. Safarov Sh. Pragmalolingvistika. – Toshkent. 2008. – 320 b.
5. Yule G. Pragmatics. Oxford University Press, 1996. – 138 p.